



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI
BANK OPERATSIYALARI METODOLOGIYASI BOSHQARMASIDA
RO‘YXATDAN O‘TKAZILDI**

**2022 yil 31 yanvar
174V-son**

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kuzatuv kengashining

**““Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining
2022 yilga belgilangan dividend siyosati”ni
tasdiqlash to‘g‘risida**

QARORI



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI
KUZATUV KENGASHI
Q A R O R I**

**Bank faoliyatini boshqarishning
2022 yilga belgilangan siyosatlarini
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonuniga muvofiq “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining kuzatuv kengashi **qaror qiladi**:

1. Bank faoliyatini boshqarishning 2022 yilga belgilangan quyidagi siyosatlari tasdiqlansin:

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan depozit siyosati 1-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan dividend siyosati 2-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan investitsiya siyosati 3-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan kadrlar siyosati 4-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan kapitalni boshqarish siyosati 5-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan kredit siyosati 6-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan likvidlilikni boshqarish siyosati 7-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan narx-navo siyosati 8-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati 9-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan xorijiy valyutadagi aktivlarni boshqarish siyosati 10-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan qimmatli qog‘ozlar emissiyasi siyosati 11-ilovaga muvofiq;

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2022 yilga belgilangan hisob siyosati 12-ilovaga muvofiq.

2. Mazkur qaror Bank ichki normativ hujjatlari reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

Kuzatuv kengashi raisi

T.Sharipov

Toshkent shahri,
2022 yil 31 yanvar,
10-soni.

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin
2022 yilga belgilangan
DIVIDEND SIYOSATI**

Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” qonunlari asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan dividend to‘lanishi tartibini belgilaydi hamda Bankning moliyaviy barqarorligini ta’minalashga va aksiyadorlar huquqini himoya qilishga qaratilgan.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Dividend Bank foydasining, soliq va yig‘imlar to‘langandan hamda bank kapitalini oshirishga ajratmalar amalga oshirilgandan so‘ng, aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash uchun qoladigan qismi hisoblanadi.

Bank o‘z aksiyasining har bir turi bo‘yicha e’lon qilingan dividendni to‘laydi.

2. Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

2-§. Dividend siyosatining mohiyati

3. Bankning dividend siyosati – to‘lanadigan dividend miqdorini aniqlashda Bank va uning aksiyadorlari manfaati uyg‘unligiga erishish, Bankning investitsion jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi, kapitallashuvi va likvidlilagini oshirish, ustav kapitali daromadlilagini ta’minalashga, shuningdek aksiyadorlar huquqini himoya qilish va ular hayotining farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat.

Bankning dividend siyosati Bankning bozor qiymatini maksimal oshirish maqsadida Bank foydasining ishlataladigan va kapitallashtiriladigan qismlari mutanosibligini optimallashtirishga qaratilgan foydani boshqarishga oid umumi siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

3-§. Dividend to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish

4. Aksiyaning har bir turi bo‘yicha dividend to‘lash, dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risida qaror Bank kuzatuv kengashining tavsiysi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Bank aksiyadorlari umumi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Dividend miqdori uning Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdoridan ko‘p bo‘lmaydi.

5. Bank joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi yakunlariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil yakuniga ko'ra dividend to'lashga haqli hisoblanadi. Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi yakunlariga ko'ra dividend to'lash to'g'risida qaror tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

6. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi dividend yuzasidan quyidagicha qaror qabul qilishi ham mumkin:

a) Bank ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida o'tgan yillar taqsimlanmagan foydasini kapitalizatsiya qilish yo'li bilan qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni aksiyadorlar orasida ularning ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlash haqida;

b) Bankning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida dividendni ustav kapitalini to'ldirishga yo'naltirish (foydani kapitalizatsiya qilish) haqida;

d) agar dividend to'lanadigan paytda Bankda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki shunday belgilar dividend to'lash natijasida paydo bo'lishi kutilsa, aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividend to'lamaslik to'g'risida, shuningdek Bank ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lмаган miqdorda dividend to'lash haqida.

7. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend to'lash Bank ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

4-§. Dividendni to'lash tartibi

8. Dividend Bank aksiyadorlariga quyidagilar asosida to'lanadi:

a) moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi yakunlari, shuningdek moliyaviy yil yakuni bo'yicha Bank sof foyda olgan bo'lsa;

b) Bank kuzatuv kengashining dividend miqdori va uni to'lash tartibiga oid tavsiyasi ifodalangan qarori mavjud bo'lsa;

d) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi yakunlari, shuningdek moliyaviy yil yakuniga ko'ra dividend to'lash to'g'risida qarori mavjud bo'lsa.

9. Dividendga yo'naltiriladigan mablag' hajmi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizom" (*Adliya vazirligida 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan ro'yxatga olingan*) va "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom" (*Adliya vazirligida 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan*) asosida kapital zaxiralar va standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralarga ajratma qilgandan so'ng qolgan sof foydadan kelib chiqib aniqlanadi.

10. Dividend to'lashga yo'naltiriladigan mablag' hajmi soliq va yig'imlar to'langandan so'ng sof foydaning kapital zaxiralar va standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralarga ajratmalar

qilingandan keyin qolgan qismidan kelib chiqib aniqlanadi.

11. Dividend Bank tomonidan quyidagi shakllarda to‘lanadi:

a) pul mablag‘ida;

b) Bank aksiyalarida (dividendni ustav kapitalini to‘ldirishga yo‘naltirish). Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendni Bank aksiyalari bilan to‘lashga yo‘l qo‘ymaydi.

12. Dividend aksiyador-jismoniy shaxsga uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga pul o‘tkazish orqali to‘lab beriladi. Aksiyador o‘z dividendini olish uchun uchinchi shaxs nomiga notarius tomonidan tasdiqlangan ishonchnoma berishga haqli hisoblanadi.

13. Dividend aksiyador-yuridik shaxsga uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi.

14. Aksiyador haqida to‘liq ma’lumot bo‘lmagan taqdirda unga hisoblangan dividend Bankning 29822 “To‘lanishi lozim bo‘lgan dividend” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

15. Aksiyador tomonidan yashash manzili, bank rekviziti va hisobvarag‘i o‘zgarganligi ma’lum qilmaganligi tufayli unga dividend o‘z vaqtida to‘lanmasa, Bank javobgar bo‘lmaydi.

To‘lanmagan (olinmagan) dividendga foiz hisoblanmaydi.

Dividend Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi tomonidan belgilangan muddatda Bankning aybi bilan to‘lanmagan (olinmagan) taqdirda, to‘lanmagan (olinmagan) dividend bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To‘lanmagan (olinmagan) dividend bo‘yicha hisoblanadigan penya miqdori to‘lanmagan (olinmagan) dividendning 50 foizidan ortiq bo‘imasligi lozim.

16. Dividendni to‘lash muddati Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividend uni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmisht kun ichida to‘lanadi.

17. Birinchi navbatda imtiyozli aksiyalarga, so‘ng oddiy aksiyalarga dividend to‘lanadi.

Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha qat’iy belgilangan dividendni to‘lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo‘lgan taqdirda Bank mazkur aksiyalar egalariga dividend to‘lashni rad etishga haqli emas. Foyda yetarli bo‘lmaganda yoki zarar ko‘rib ishlayotganda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend Bank tomonidan Bankning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fonddagi mavjud mablag‘ doirasida to‘lanishi mumkin.

18. Aksiyadorlarga dividend to‘lash Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan (Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi o‘tkazilishidan uch ish kuni oldin shakllantirilgan) Bank aksiyadorlari reyestri ma’lumotlariga muvofiq amalgaga oshiriladi.

19. Bank O‘zbekiston Respublikasining norezident aksiyadori yozma arizasiga ko‘ra unga hisoblangan dividendni erkin ayirboshlanadigan xorijiy valyutaga ayirboshlaydi va mablag‘ni

norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi.

5-§. Dividend to‘lanishi haqida aksiyadorlarni xabardor qilish

20. Bank dividend miqdorini undan undiriladigan soliqni inobatga olmagan holda e’lon qiladi. Bank to‘lanadigan dividend miqdori to‘g‘risida ma’lumotni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi veb-saytida, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatda e’lon qiladi.

6-§. Dividend to‘lashdagi cheklovlar

21. Bank quyidagi hollarda dividend to‘lash haqida qaror qabul qilishga haqli emas:

a) prudensial normativlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda yoki ular mazkur dividend to‘lash oqibatida buzilganda;

b) bankrot bo‘lganda yoki dividend to‘lash oqibatida bankrotlik alomatlari yuzaga kelganda;

d) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda;

e) Bankka nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining dividend to‘lashni to‘xtatish (foydani taqsimlamaslik) to‘g‘risida talabi mavjud bo‘lsa;

f) Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali (30300-hisobvaraq) va zaxira kapitali (30900-hisobvaraq) yig‘indisidan kam bo‘lsa.

22. Ushbu Siyosatning 21-bandida ko‘rsatilgan holatlar bartaraf etilgach, Bank hisoblangan dividendni aksiyadorlarga to‘lab beradi.

23. Bank quyidagi hollarda dividend to‘lash (foydani taqsimlash) uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roziligini oladi:

a) to‘lanadigan dividendlarning umumiy qiymati Bank o‘z kapitalining (regulyativ kapitalining) o‘n foizidan ortganda;

b) joriy yoki o‘tgan chorakni va (yoki) moliya yilini zarar bilan yakunlaganda.

7-§. Dividendni soliqqa tortish

24. To‘langan dividend qonun hujjatlariga muvofiq soliqqa tortiladi.

8-§. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur Siyosat normalariga xizmat faoliyati yuzasidan dividend masalasiga daxldor xodimlar rioya etishlari shart.

26. Ushbu Siyosat ijrosini ta’minalash va nazorat qilish Bank boshqaruvi va Qimmatli qog‘ozlar boshqarmasiga yuklatiladi.

Boshqaruv raisi

S.Normuxamedov

Boshqaruv a'zolari bilan kelishildi:

Boshqaruv raisi o'rribbosari

K.Gabbazov

Boshqaruv raisi o'rribbosari

Z.Kurganova

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori

A.Mamatqulov

Strategik rivojlanish departamenti direktori

S.Urmanova

Iqtisodiy tahlil va statistika departamenti direktori

M.Muxammedyarova

Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti direktori

Sh.Xaliyarov

Yuridik xizmat departamenti direktori

F.Karimova